

## TIL BIRLIKARIGA MAYDON NUQTAI-NAZARIDAN YONDASHISH

Mahliyo Jo‘rayeva

Xalqaro innovatsion universiteti o‘qituvchisi

**Annotation.** Maqolada fizika fani termini hisoblangan “maydon” tushunchasi, uning sohada anglatuvchi umumiyligi ma’nosiga, maydon tushunchasining tilshunoslikka kirib kelish sabablari, maydon tushunchasi atrofida amalga oshirilgan ilmiy ishlari haqida batafsil ma’lumot berilgan. Fizikadagi elektr maydonida bo‘lgani kabi til birliklari ham tarz ma’nosini qay darajada ifodalashiga ko‘ra yadro va periferik (chekka) hududlarda joylashuvi haqida ham so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** elektr maydon, yadro, periferik, tarz maydoni, maydon uzvlari, maydon markazi, maydon chekkasi, funksional-semantik maydon.

Tilsiz insonning o‘tmishini, buguni va kelajagini tasovvur etib bo‘lmaydi. Chunki, u bor va o‘zining mukammal ko‘rinishiga ega ekan yosh avlod o‘z millati tarixini, milliy an’analarini, urf-odatlari va ajdodlarining bitmas-tuganmas manaviy merosini o‘rgana oladi, tanita oladi. Millatning tili va adabiyotida har bir xalqning ruhiyati, madaniy-ma’naviy qiyofasi, uning milliy mafkurasi va milliy g‘oyasi aks etadi. Shu sababli milliy tilga e’tibor har doim muhim masalalardan sanalib kelingan. Inson kuchli va ayovsiz raqobatga asoslangan bugungi jamiyatda kasbidan, hayotda tanlagan yo‘lidan qat’iy nazar kishilar o‘rtasida munosabatga kirishar ekan o‘z aql-idroki, mustaqil teran fikri, shu bilan birga, burro va sermazmun nutqi bilan ular orasida hurmat topadi. Bugungi ta’limga va tarbiyaga asoslangan ta’lim jarayonida shuurida milliy ruhi mustahkam shaxsni tarbiyalash har qachongidan ham muhim hisoblanmoqda. Ma’lumki, mustaqillik barcha sohalarda tub o‘zgarishlarga zamin yaratdi, shu qatori tilshunoslik sohasida ham. Bunday o‘zgarishlar samarasini turli fan sohalarining aralashuv jarayonida, bevosita o‘z terminlarining, ular anglatayotgan ma’nolarning sayqallashuvi jarayonida ham ko‘rishimiz mumkin.

“Maydon-biror fizik hodisa ro‘y beradigan yoki uning ta’siri seziladigan fazo” ga nisbatan qo‘llaniladi. Fizika sohasi mutaxassislarining kuzatishicha, har qanday elektr

zaryadi o‘zining tevarak atrofida turli kenglikda magnit maydonini hosil qiladi. Zaryadga yaqin fazoda uning kuchi kuchli sezilsa, markazdan uzoqlashilgan sari u kuchsizlanib boradi.

Bugunda tilshunoslik sohasida ham bir qancha tadqiqot ishlari yaratilyaptiki, ularda “maydon” tushunchasi asos vazifasini o‘tayapti. Biroq, soha mutaxassislari orasida maydonlarni ajratish va ularni tushunishda turli chalkashliklar ham ko‘zga tashlanmoqda. Shu sababli, o‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil etish, sohaning o‘rganilmagan muammolarini tadqiq etish bugunda muhim ahamiyat kasb etada. Tilshunoslikda maydon tushunchasi qator obyektlarda talqin etildi. Xususan, G,S,Shchur quyidagilarni sanab o‘tgan: funksional-semantik maydon, morfem maydon, fonem maydon, so‘z yasovchilar maydoni, leksik maydon, mazmuniy maydon, mikro va makro maydon, nisbiylik maydoni, vaqt maydoni, son maydoni, inkor maydoni, mavjudlik maydoni, leksik-grammatik maydon, transformatsion maydon, mutlaq maydon, faoliyat maydoni, holat maydoni, va hokazo. Jumladan, o‘zbek tilida tarz funksional-semantik maydoni, xususan, harakat holati, tarzi, darajasi mikromaydonini ilmiy-nazariy asosda o‘rganish va ilmiy-amaliy jihatdan tahlil etish bugungi kunda o‘zbek tilshunosligida hal qilinishi lozim bo‘lgan dolzarb masalalardan biri sanaladi. Zotan, til ijtimoiy, biologik-fiziologik hodisa sifatida kommunikativ, emotsiyal-ekspressiv, akkumulyativ funksiyalarini bajaradi. Tilning emotsiyal-ekspressiv funksiyasining namoyon bo‘lishida holat-ravish-tarz tushunchasining tahlili muhim ahamiyat kasb etadi.

Fizikadagi elektr maydonida kuzatilgani kabi til birliklari ham tarz ma’nosini qanday darajada ifodalashiga ko‘ra markaziy (yadro) va chegara (periferik) hududlarda joylashadi. Tarz mikromaydonini ifodalovchi vositalar ham tarz funksional-semantik maydoni tushunchasining qaysi qismlarini hosil qilishiga ko‘ra uch qismga bo‘linadi: yadro, markaz va chekka qism.

Til birliklari nutqda reallashar ekan, turli lingvistik voqeliklar o‘zaro aloqadorlikda, mutanosiblikda namoyon bo‘ladi. Bunda birlikning semantik voqelanish pog‘onasi soni turlicha bo‘lishi mumkin. Shu sababli o‘zbek tilshunosligida

so‘ngi yillarda lisoniy hodisalarini leksik paradigmalar, morfologik kategoriyalardan farqli ravishda keng ko‘lamli yaxlitlik, funksional-semantik maydon sifatida o‘rganishga e’tibor kuchaymoqda.

Maydon nazariyasi bo‘yicha jahon tilshunosligida ham bir qator ishlar amalgamoshirilgan. Maydon tushunchasi fizikada fizik hodisa voqelanadigan yoki uning ta’siri paydo bo‘ladigan fazo sifatida izohlanadi. Ulimseva dastlab semantik maydon nazariyasi va uning lug‘at boyligini tahlil qilishdagi imkoniyatlarini yoritdi. A.M.Kuznetsov ta’kidlaganidek, tadqiqotchilar ko‘p hollarda leksik maydonni leksik-semantik guruhga, leksik paradigmaga ma’nodosh tushunchalar deb qaraydilar. Bu borada T.Mirzaqulovning “Maydon nuqtai nazaridan yondashilganda u tilning bir necha sath hodisalarini tutashtirib, sathlararo farqqa chek qo‘yadi, paradigma esa bir sath doirasida bo‘lib, sathlararo chegarani saqlaydi” degan fikri e’tiborlidir. Lisoniy birlikning semantikasi, u qaysi sath birligi bo‘lishiga bog‘liq ravishda, o‘zga sathlarning voqelanishga ta’siri turlicha bo‘ladi. Xususan, agar voqelanuvchi birlik morfologik bo‘lsa, bunda leksik birlik (morfema birikayotgan so‘z)ning unga ta’siri kuchli,boshqa sathlarning ta’siri sezilar-sezilmas bo‘ladi. Voqelanayotgan hodisa leksik birlik bo‘lsa, morfologik va sintaktik hodisalarning voqelanishga bo‘lgan ta’sirida ularning birortasiga ustuvorlik berib bo‘lmaydi. Sintaktik birliklarning nutqiy voqelanishida ham o‘zga sathlar hamkorligi kuzatiladi.

O‘zbek tilida tarz funksional-semantik maydoni tarkibini tarz tushunchasining lisoniy vositalari – fonetik, leksik, morfologik, sintaktik usullar va nolisoniy vositalar tashkil qiladi.

Holat (tarz) ma’nosi leksik vositalar – holat ravishi va holat bildiruvchi sifatlar va holatga taqlid so‘zlarda kuchli darajada. Bu leksik vositalar tarz funksional-semantik maydoni tushunchasining asosiy vositalari bo‘lib, maydon yadrosini tashkil etadi. Bu leksik vositalar tarz funksional-semantik maydoni tushunchasining asosiy vositasi bo‘lib, maydon yadrosini tashkil etadi. Chunki bu vositalar asosan holat ifodalash uchun xoslangan va unda holatning asosini tashkil etuvchi tarz yaqqol sezilib turadi. Shuningdek, bu leksemalar gapda sintaktik vazifada kelganda ham ravish holi

vazifasini bajaradi, mazkur funksiyani bajarish uchun turli shakl va vositalar bilan birgalikda izchil ishlatiladi. Holat ravishi bosh vosita (yadro) sirasida bo‘lib, u tarz ma’nosini turli ko‘rinishlarda ifodalash uchun xoslangan va izchil, uzluksiz qo‘llanishga ega. *Aziza shaxdam qadamlar tashlab idoraga yo‘l oldi* gapida esa *shaxdam* sifati tarz ma’nosini bildiryapti va gapda tarz holi vazifasida kelyapti. Aslida sifatning asosiy sintaktik vazifasi aniqlovchi bo‘lib kelish, biroq bu o‘rinda harakatga – *qadamlar tashlab* qo‘shma fe’liga tobelanganligi uchun u ham tarz holi vazifasida kelyapti.

Tarz ma’noli funksional-semantik maydon markazini leksik morfologik vositalardan – harakat tarzi shakllari, shuningdek, morfologik vositalardan – harakatning kuchli yoki kuchsiz darajasini ifodalovchi shakllar va ayrim ravishdosh shakllari tashkil qiladi.

Maydonning chekka qismini quyidagi vositalar tashkil etadi: ravish holi, ravish ergash gapli qo‘shma gaplar, urg‘u, ravish holi vazifasida kelgan ayrim ko‘makchili va kelishikli otlar, nolisoniy vosita (imo-ishora, so‘zlovchining subyektiv munosabati). Bu vositalar nafaqat tarz maydoni, balki boshqa mikromaydonlarga xos tushunchalarni ifodalash xususiyatiga ham ega. Bu esa ularning maydon chekkasidan o‘rin olishini ta’milagan. Belgi darajasi mikromaydoni chekka vositalarida belgining ortiq-kamligi lisoniy va nolisoniy vositalar yordamida ifodalanar ekan, bunda holat kuchsizlanadi.

Tarz ma’noli funksional-semantik maydon chetidan fonetik vositalardan urg‘u, sintaktik vositalardan ravish holi va ravish ergash gapli qo‘shma gaplar o‘rin oladi.

Xulosa qilib aytganda, lison nutqda voqelanar ekan, bunda birlikning semantik qamrovi va voqelanish imkoniyatlariga ko‘ra voqelanish pog‘onasi soni turlicha bo‘lishi mumkin. Shuningdek, lisoniy birlikning semantikasi, u qaysi sath birligi bo‘lishiga bog‘liq ravishda o‘zga sathlarning voqelanishga ta’siri turlicha bo‘ladi. Xususan, agar voqelanuvchi birlik morfologik bo‘lsa, bunda leksik birlik (morfema birikayotgan so‘z) ning unga ta’siri kuchli, boshqa sathlarning ta’siri sezilar-sezilmas bo‘ladi. Voqelanayotgan birlik leksik bo‘lsa, morfologik va sintaktik hodisalarning voqelanishga bo‘lgan ta’sirida ularning birortasiga ustuvorlik berib bo‘lmaydi.

Sintaktik birliliklarning nutqiy voqelanishida ham o‘zga sathlar hamkorligi kuzatiladi. Tarz hodisasi funksional-semantik maydon sifatida o‘rganilar ekan, uni ifodalovchi fonetik, leksik, morfologik, sintaktik va nolisoniy vositalar birgalikda bir-birini to‘ldiruvchi yaxlit tizimni tashkil etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. F.Hamroyev “O‘zbek tilida tarz ma’noli leksemalar” Mag. diss - Qarshi 2012.
2. Sh.M. Iskandarova “O‘zbek tili leksikasini mazmuniy maydon sifatida o‘rganish (shaxs mikromaydoni)” filol.fan. dokt. ...diss. avtoref, -Toshkent.1999.
3. F.S.Safarov “O‘zbek tilida son-miqdor mikromaydoni va uning lisoniy -nutqiy xususiyati” Filol. fan. nomzodi. ...diss. avtoref. – Samarqand, 2004.
4. A.Rasulova. “O‘zbek tilining shart va to‘siksizlik maydoni” Filol. fan. nomz. ...diss avtoref, - Farg‘ona. 2018.
5. L.Elmurodova “O‘zbek tilida daraja funksional-semantik maydoni” Filol. fan. nomz. ...diss avtoref, - Toshkent, 2011.